Mehnat iqtisodiyoti va mehnat resurslaridan foydalanish muammolari sohasida yetakchi olima

Mehnat iqtisodiyoti va mehnat resurslaridan foydalanish muammolari sohasida yetakchi olima, O’zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi akademigi Ubaydullayeva Ra’no Axatovna 84 yoshida vafot etdi.

R.Ubaydullayeva 1936-yilning 4-noyabrida Toshkent shahrida tug’ildi. 1958-yilda Toshkent moliya-iqtisod institutini tamomladi.

Bo’lg’usi olima o’z mehnat faoliyatini Fanlar akademiyasining Iqtisodiyot institutida laborant sifatida boshladi. 1964-yilda nomzodlik, 1974-yilda doktorlik dissertatsiyasini himoya qildi. 2000-yilda O’zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi haqiqiy a’zosi etib saylandi.

Iste’dodli olima o’zining qariyb 60 yillik ilmiy va tashkilotchilik faoliyati davomida Fanlar akademiyasi Iqtisodiyot instituti laboranti, kichik, katta ilmiy xodimi, sektor mudiri, ilmiy ishlar bo’yicha direktor o’rinbosari, O’zbekiston Respublikasi Mehnat vaziri o’rinbosari va respublika “Ijtimoiy fikr” jamoatchilik fikrini o’rganish markazi direktori kabi mas’uliyatli lavozimlarda samarali mehnat qildi va yurtimizda mehnat iqtisodiyoti sohasidagi dolzarb masalalarni tadqiq etish, yuqori malakali kadrlar tayyorlash ishiga munosib hissa qo’shdi.

Akademik R. Ubaydullayeva respublika mehnat resurslaridan to’g’ri foydalanishning mintaqaviy ijtimoiy-iqtisodiy muammolarini amalga oshirishda rahbarlik qilib, ish bilan band bo’lmagan aholi real rezervlari va mehnat bozorini baholashni amalga oshirdi, mehnat resurslarini rejalashtirish va boshqarishning balans metodini takomillashtirish bo’yicha xulosa va tavsiyanomalarni amalga oshirdi.

Uning ilmiy dasturlari va tadqiqotlari respublikamizda mehnat resurslaridan to’g’ri foydalanish, mehnatning kasanachilik turini tashkil etish, ayollar mehnatidan foydalanishning ijtimoiy muammolarini yechishda keng

qo’llanib kelinmoqda. Uning mazkur sohadagi ilmiy ishlanmalari iqtisodiyotimiz tarmoqlari rivojida muhim ahamiyatga ega.

Talabchan va jonkuyar ustoz sifatida ko’plab yoshlarga ilm-fan sirlaridan saboq bergan olimaning bevosita rahbarligida 50 dan ortiq fan nomzodlari va fan doktorlari tayyorlangan.

Olimaning mehnat iqtisodiyoti yo’nalishiga bag’ishlangan 300 dan ziyod ilmiy maqolalari, kitob va monografiyalari yurtimiz va xorijiy mamlakatlar olimlari va mutaxassislariga yaxshi ma’lum.

Akademik R.A.Ubaydullayevaning mamlakatimiz ilm-fanini rivojlantirish borasidagi xizmatlari davlatimiz tomonidan munosib taqdirlandi. U “Mehnat shuhrati” ordeni bilan mukofotlangan edi.

Yirik olima, mehribon ustoz, kamtarin inson Ra’no Ubaydullayevaning xotirasi qalblarimizda hamisha saqlanib qoladi.